

## ONA TILI DARSLARIDA QO‘SHMA GAPLARNI O‘QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH

*Toshkent davlat o‘zbek tili*

*va adabiyoti universiteti III bosqich talabasi*

**Rahmatullayeva Fazilat**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ona tili ta’limida qo‘shma gaplarni o‘rgatish jarayonida interaktiv metodlardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Interaktiv metodlar orqali o‘quvchilarning grammatik bilimlari chuqurlashadi, mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish va fikrni izchil bayon eta olish ko‘nikmalarini rivojlanadi. Maqolada qo‘shma gaplarning turlarini o‘rgatishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ayrim interaktiv usullar batafsil tavsiflangan va amaliy misollar asosida ularning afzalliklarini ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar.** Ona tili, metodika, qo‘shma gap, interaktiv metod, til kompetensiyasi, fikrlash, o‘qitish texnologiyasi.

Ona tili ta’limi o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini to‘g‘ri, ravon va mantiqiy ifoda eta olish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan muhim sohalardan biridir. Bu jarayonda grammatikaning asosiy bo‘limlarini puxta o‘zlashtirish alohida ahamiyatga ega. Xususan, qo‘shma gaplar mavzusi o‘quvchilarda tilning murakkab sintaktik tuzilmalarini idrok etish, murakkab fikrlarni bayon eta olish salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish bu maqsadga erishishda muhim vosita hisoblanadi.

Qo‘shma gaplar bir nechta mustaqil gaplarning semantik va sintaktik jihatdan birikishi orqali hosil bo‘lgan murakkab gaplar bo‘lib, ular fikrning aniqligi, izchilligi va mantiqiyligi uchun xizmat qiladi. “Darsliklarimizda qo‘shma gaplar talqini ancha murakkab. U ikki va undan ortiq sodda gapning mazmun, grammatik shakl va ohang asosida birikuvidan tuziladi. Uning tarkibidagi sodda gaplar bir-biri bilan bog‘lovchilar,

yuklamalar, ko‘makchilar, nisbiy so‘zlar, fe’l shakllari va ohang orqali bog‘lanadi.”<sup>1</sup> Sodda gap bilan qo‘shma gap o‘rtasidagi asosiy farq, birinchidan, ularning tuzilishiga ko‘ra bo‘lsa, ikkinchidan, ularni tashkil etgan qurilish materialining turliligidadir.

Qo‘shma gaplarni o‘quvchilarga o‘rgatishdan, avval, ularni quyi sinflarda olgan bilimlarini sinab olish zarur. Chunki gaplar tuzilishini o‘rganishda yordamchi so‘zlar, gap bo‘laklari, so‘z turkumlari singari mavzularning ahamiyati katta hisoblanadi. Avvalo, qo‘shma gap va sodda gaplarning o‘quvchilar ongida farqlanishini nazoratga olish zarur. Gapdagi kesim, kesimlik shakllariga ega bo‘lsagina, mustaqil kesim hisoblanadi. Ya’ni u o‘z navbatida tasdiq, inkor, mayl, zamon, shaxs-son ma’nolariga ega bo‘lishi va alohida hukmni ifodalashi kerak bo‘ladi. Lekin bunday gaplardagi kesimlar uyushiq bo‘laklar tarzida bo‘lsa, ular qo‘shma gap hisoblanmaydi. Shuning uchun o‘quvchilar ongida “qo‘shma gap va sodda gap kesimga qarab aniqlanadi”, -degan fikr uyg‘onishiga yo‘l qo‘ymaslik zarur. Masalan: Kasbimiz- o‘qitish, soda gap. Kasbimiz- o‘qitish va o‘rgatish qo‘shma gap.

Interaktiv metodlar o‘quvchining darsdagi faol ishtirokini ta’minlaydigan, uni mustaqil izlanishga, muloqotga, tahlilga va bahsga undaydigan usullardir. Bu metodlar asosida o‘quvchi faqat axborot qabul qiluvchi emas, balki bilim hosil qiluvchi va uni faol tarzda egallovchi subyektga aylanadi. Ona tili darslarida qo‘shma gaplar mavzusini “Aqliy hujum”, “Insert”, “Klaster”, “Bo‘sh stul”, “Savollar zanjiri” kabi interaktiv metodlar yordamida o‘rgatish o‘quvchilarda mavzuni chuqr egallash va uni amaliyotda qo‘llash uchun samarali usullar hisoblanadi.

“Insert” texnologiyasida o‘quvchilar matnni o‘qib, undagi qo‘shma gaplarni belgilar orqali aniqlaydi va turlarini tahlil qiladi. Quyida 9-sinflar uchun “Insert” metodi amalda qo‘llanilishining namunasi berilgan. Avval o‘quvchilarga qo‘shma gaplar haqida ma’lumot beriladi va ushbu shartli belgilar ma’nosи izohlanadi:

“+” Men buni ilgari bilardim

<sup>1</sup> B. To‘xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” 2006. -B 163.

“-” Bu yangi ma’lumot

“?” Tushunmadim /savolim bor

“!” Bu juda qiziqarli yoki ajablandim

O‘quvchi matnni o‘qib, quyidagicha belgilaydi:

“+” – “Qo‘shma gap bir nechta sodda gapdan iborat bo‘lishini bilardim.”

“-” – “Bog‘lovchisiz qo‘shma gapda hech qanday bog‘lovchi bo‘lmasligi yangi ma’lumot bo‘ldi.”

“?” – “Murakkab qo‘shma gap bilan bog‘lovchili gapning farqini yaxshiroq tushunmadim.”

“!” – “Ergash gap tushunchasi qiziqarli edi, chunki u bog‘liq gapga bo‘ysunar ekan.”

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan quyidagilarni muhokama qiladi:

“+” belgilariga asoslanib mavjud bilimlar qaytariladi.

“-” belgilariga asoslanib yangi bilimlar mustahkamlanadi.

“?” belgilariga e’tibor qaratilib tushunmagan joylar izohlanadi.

“!” belgilar orqali qiziqish uyg‘otgan jihatlar ustida suhbat o‘tkaziladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarga faqat qoida yodlatish emas, balki shu yodlagan qoidalarini kundalik hayotda duch kelgan masalalarni hal qilishda qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirish hozirgi zamon ona tili o‘qituvchisining asosiy vazifasi hisoblanadi. O‘quvchining sof ona tilida ma’noli so‘zlash odobini shakllantirish uning oldiga qo‘ygan maqsadlaridan biri bo‘lmogi lozim. Qo‘shma gap turlari haqida darslikda berilgan topshiriq va mashqlarni bajarishda har qanday grammatik birlikning semantik xususiyatlariga ham e’tibor berish kerak. Agar o‘quvchi o‘z nutqida qo‘llagan lisoniy birlikning semantik xususiyatini bilsa, har qanday nutqiy jarayon uning uchun samarali kechadi. Zero, til ta’limining asosiy vazifasi o‘quvchilarga faqat bilim berish emas, balki

bu bilimlar orqali ularning til malakasini oshirish hamdir. Til bo'yicha egallangan bilim malakaga aylanmas ekan, u keraksiz bo'lib qolaveradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdurahmonov G'. Qo'shma gaplar klassifikatsiyasi.-Toshkent:O'zbek tili va adabiyoti masalalari.-1980.
2. G'afurov N. va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
3. Jo'rayev A. Ona tili darslarida innovatsion yondashuvlar. – Samarqand, 2019.
4. Qodirov A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2021.
5. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva, 1991.